

**FONETIK-FONEMATIK NUTQ NUQSONINI VA OVOZ
BUZILISHLARINI BARTARAF ETISHDAGI KORREKSION ISH
TIZIMIDA LOGOPEDIK RITMIKA**

Ulug'ova Shodiya Voseyevna

JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti Defektologiya talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fonetik-fonematik nutq nuqsonlari va ovoz buzilishlarini bartaraf etish jarayonida logopedik ritmikaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, logopedik ritmikaning asosiy usullari, mashqlar turi va korreksion ishlar tizimiga integratsiyasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit sózlar: Fonetik va fonematik nutq, logopedik ritmika, nutq kamchiliklar, korreksiya, ovoz buzilishlar, ovoz va nafas mashqlar

Fonetik-fonematik nutq nuqsonlari va ovoz buzilishlari bugungi kunda logopedik amaliyotda keng uchraydigan muammolardan hisoblanadi. Nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilmaslik, fonemalarni farqlay olmaslik, tovushlar almashuvi, tushib qolishi kabi holatlar bolalarda kommunikativ qobiliyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada logopedik ritmika — musiqiy-ritmik harakatlar, nafas olish, ovoz chiqarish, artikulyatsion va diksion mashqlar orqali nutqni rivojlantirish va muvofiqlashtirish vositasi sifatida samarali vosita hisoblanadi. Logopedik ritmika — bu musiqa, harakat, nafas va nutq elementlari asosida tashkil etiladigan maxsus mashqlar tizimidir. U bolaning umumiy va nutq motorikasini rivojlantirish, nafas olishni boshqarish, ritmik hisni shakllantirish va emotsiyal holatini tartibga solish orqali nutqiy faoliyatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Logopedik ritmikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Nutq apparatini faollashtirish;
- To'g'ri nafas olish va nafas chiqarishni o'rgatish;
- Artikulyatsiya a'zolarini chiniqtirish;
- Ritmik sezgini rivojlantirish;
- Harakat va nutqni muvofiqlashtirish;
- Emotsional holatni ijobiy tomonga yo'naltirish.

Fonetik-fonematik buzilishlar asosan tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, fonemalarni ajrata olmaslik, so‘z tarkibini buzish holatlari bilan namoyon bo‘ladi. Bunday nuqsonlarni bartaraf etishda logopedik ritmika orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Tovushlar talaffuzini avtomatizatsiyalash;
- Ovoz balandligi va tembrini nazorat qilish;
- Nafas va nutq koordinatsiyasini rivojlantirish;
- Emotsional chiqishlar orqali nutqga ishonchni kuchaytirish.

Logopedik ritmika mashqlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1. Nafas olish mashqlari: Nafas olish va chiqarishni boshqarish orqali nutqni uzluksiz va ravon qilish;

2. Artikulyatsion mashqlar: Lab, til, jag‘ harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan;

3. Musiqiy-harakatli mashqlar: Ritmik yurish, sakrash, qo‘1 harakatlari orqali umumiy motorikani rivojlantirish;

4. Ovozli mashqlar: Tovush chiqarish, rezonans mashqlari, qo‘sish qaytarish orqali ovoz diapazonini kengaytirish. Logopedik ritmika korreksion ishlar tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu mashqlar darslarning kirish, asosiy va yakuniy bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, og‘zaki nutqni rag‘batlantirish, o‘yin elementlari bilan boyitilgan mashqlar bolaning ishtirokini kuchaytiradi va darsning samarasini oshiradi. Ritmik mashg‘ulotlar orqali bolalar o‘z harakatlarini, nafasini va nutqini uyg‘unlashtirishni o‘rganadi. Bu esa nafaqat nutq, balki umumiy psixomotor rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fonetik-fonematik nutq nuqsonlari va ovoz buzilishlarini bartaraf etishda logopedik ritmika juda muhim ahamiyatga ega. Bu metod nafaqat nutqiy malakalarni rivojlantiradi, balki bolaning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va o‘ziga ishonchini oshiradi. Shu bois, logopedik ish jarayonida ritmik mashg‘ulotlar doimiy va tizimli ravishda olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. Moskva, 2003.
2. Sokolova E.T. Nutq terapiyasida ritmika elementlari. Sankt-Peterburg, 2011.
3. Yo'ldosheva M. Nutqni rivojlantirish metodikasi. Toshkent, 2018.
4. Astanakulova M. Logopedik mashg'ulotlar texnologiyasi. Toshkent, 2020.
5. Umumiy logopediya. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2021.